

## O‘ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA FANDA YANGI ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI YARATISH TAJRIBALARI

**Xasanova Gulnora Ravshanovna**

*Jizzax shahar 2-sonli Politexnikumi maxsus fan o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarning jadal sur’atlarda tadbiq etilishi ta’lim tizimi sifatini oshirishni tashkil etishning shakli va mazmunida katta o‘zgarishlar olib kelmoqda. Hozirgi kunda professional ta’lim tizimi sifatini oshirishda, faqatgina ilmiy va o‘quv adabiyotlarigina emas, balki zamonaviy yangi avlod elektron o‘quv adabiyotlari, multimediyali elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘qitish materiallari, ma’ruza matnlari va boshqalar muhim o‘rin tutadi.*

**Kalit so‘zlar:** *elektron ta’lim resurslari, multimediya, elektron kutubxona, elektron ko‘rgazmali qurollar kutubxonasi, elektron ensiklopediya.*

**Аннотация.** *Бурное применение информационно-коммуникационных и инновационных технологий в системе образования вносит большие изменения в форму и содержание организации повышения качества образовательной системы. В настоящее время в повышении качества системы профессионального образования важное значение имеет не только научно-учебная литература, но и современная электронная учебная литература нового поколения, мультимедийные электронные учебники, учебные пособия, учебно-методические материалы, тексты лекций и другие.*

**Annotation.** *The rapid introduction of information and communication and innovative technologies in the education system is bringing about major changes in the form and content of the organization of improving the quality of the education system. Currently, in improving the quality of the professional education system, not only scientific and educational literature, but also modern new generation electronic educational literature, multimedia electronic textbooks, teaching aids, teaching materials, lecture notes, etc. play an important role.*

Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim jarayoniga elektrtron ta’lim resurslarini joriy etish jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda professional ta’lim tizimida u yoki bu tarzda elektrtron nashrlar yoki manbalardan foydalanilmaydigan fanni uchratib bo‘lmaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi elektron ta’lim resurslarini yaratish jarayonida qanday vazifani bajarishidan qat’iy nazar, u tegishli vazifalarni yetarlicha professional darajada hal qilishga imkon beradigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmoqda.

YUNESKO ning ta'rifi bo'yicha: "Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir".

Bu ta'rifdagi asosiy tushuncha "tizimli uslub" dir. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyani o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash – ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini ro'yobga chiqarish davomida turli o'qitish uslublaridan foydalanishning muayyan umumiy me'yorlarini belgilovchi yo'llanma, yoki qolip sifatida qarash mumkin.

Pedagogik texnologiya tamoyillari.

1. Ta'lim natijalarining kafolatlanganligi. Korxonada mahsulot sifati qanday kafolatlanasa, texnologik ta'limda ham ta'lim natijasi shunday kafolatlanadi. Pedagogik texnologiya – bu intellektual mahsulot ishlab chiqaruvchi konveyerdir. Undan chiqqan mahsulotlarning sifati etalon asosida belgilangan va kafolatlangan bo'ladi. Ta'lim natijalarini qayd qilish uchun maxsus testlar, jadvallar, pedagogik taksonomiyalar qo'llaniladi. Ular asosida o'quvchilarning xatti-harakatlari baholanadi.

2. Ta'limning amaliy xarakterda ekanligi. Yuz marta ko'rgandan bir marta bajargan afzal. Texnologik ta'limda faqat bilim emas, ko'nikma va malakalar ham orttiriladi. Ta'limning nazariyga nisbatan amaliy xarakteri kuchliroq bo'ladi. o'quvchining biror bilimni o'rganishi, uni o'zi uchun kashf qilishi bilan barobardir. Shu sababli texnologik ta'limda tayyor bilimlar berilmaydi, balki ular dars paytida ishlab chiqiladi. Ta'lim natijalari faqat biror ma'lumotni eslash, aytib berishdan iborat bo'lib qolmaydi, balki biror amaliy ishni bajarish ko'nikmasi darajasiga yetkaziladi.

3. Ta'lim maqsadlarining ta'lim natijalariga mosligi. Ta'lim maqsadlari asosida ta'lim natijalari ishlab chiqiladi. Keyin ta'lim natijalari qayta ishlanadi va uning asosida qaytadan ta'lim maqsadlari tuzatiladi. Tarbiyaviy maqsadlar o'quv maqsadlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Tarbiyaviy maqsadlar asosida o'quv maqsadlariga ham tuzatishlar kiritish mumkin.

Tarbiyaviy natija bu – o'quvchining darsda orttirgan ahloqiy tarbiyasi va madaniyati emas (o'quvchining dars nihoyasida ma'naviy saviyasi oshishi, ahloqining shakllanishi kabi), balki fiziologik, psixologik va kasbiy tarbiyadir (ya'ni, diqqatni 20

minut davomida chalgimasdan o'rganilayotgan obyektga ushlab tura olish, berilgan muammo bo'yicha texnik fikrlay olish, boshqa o'quvchilarga o'z fikrini o'tkaza olish va h.k.).

O'rta kasb-hunar ta'limining asosiy vazifalaridan biri talabalarni nafaqat aniq shakllangan analitik fikrlash, muloqot qobiliyatlari, mehnatga ijodiy munosabat, hamkorlikka intilish, shaxsiy fazilatlarni namoyon etish, balki mas'uliyat hissi bilan ham bitirishdir. Bu fazilatlarning barchasi tadbirkorlik kompetensiyasi bilan shakllanadi. Ushbu muammoni hal qilish bilimlarni egallash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning faol usullariga e'tiborni qaratishni o'z ichiga oladi. Bizning vazifamiz yoshlarimizni erkin va ijodiy, mustaqil fikrlash va faol harakat qila oladigan qilib tarbiyalashdan iborat.

O'quv jarayonini elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'ldir.

Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat.

- elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun elektron ta'lim resurslarini yaratishga mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- elektron ta'lim resurslarini joriy etish orqali ta'lim-tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron ta'lim resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.
- tashqi omillar — bu elektron ta'lim resurslarining texnika uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Elektron ta'lim resurslarini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Matn, rasm, sxema va jadvalarni o'z ichiga olgan an'anaviy nashr materiallari (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar matni va kursi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha qo'llanmalar, masalalar to'plami, lug'atlar, kataloglar, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, o'quv-ko'rgazmali materiallar, turli xil uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, savol va topshiriqlar va boshqa).

2. An'anaviy audio va video-materiallar: musiqiy va nutqiy materiallar (ma'ruzalar yozilgan disklar, audiokitoblar, o'quv videofilmlari va boshqa), namoyish roliklari, taqdimot lavhalari, kinematografik mahsulotlar.

3. Zamonaviy (raqamli) elektron resurslar: turli xil axborot tashuvchi vositalar (disk, fleshka va b.)ga yozilgan fayllar, zamonaviy elektron vositalari yoki kompyuterlar yordamida eshitish va ko'rish imkoniyati yaratilgan raqamli elektron materiallar.

4. O'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar: o'quv mazmuni yoritilgan va o'quvchi bilan o'zaro muloqotga yo'naltirilgan hamda ma'lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo'ljallangan dasturlar, dasturlar majmuyi yoki tizimlari.

Elektron ta'lim resurslarini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Matn, rasm, sxema va jadvalarni o'z ichiga olgan an'anaviy nashr materiallari (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar matni va kursi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha qo'llanmalar, masalalar to'plami, lug'atlar, kataloglar, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, o'quv-ko'rgazmali materiallar, turli xil uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, savol va topshiriqlar va boshqa).

2. An'anaviy audio va video-materiallar: musiqiy va nutqiy materiallar (ma'ruzalar yozilgan disklar, audiokitoblar, o'quv videofilmlari va boshqa), namoyish roliklari, taqdimot lavhalari, kinematografik mahsulotlar.

3. Zamonaviy (raqamli) elektron resurslar: turli xil axborot tashuvchi vositalar (disk, fleshka va b.)ga yozilgan fayllar, zamonaviy elektron vositalari yoki kompyuterlar yordamida eshitish va ko'rish imkoniyati yaratilgan raqamli elektron materiallar.

4. O'qish, mustaqil ta'lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar: o'quv mazmuni yoritilgan va o'quvchi bilan o'zaro muloqotga yo'naltirilgan hamda ma'lum pedagogik vazifalarni yechish uchun mo'ljallangan dasturlar, dasturlar majmuyi yoki tizimlari.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, URQ637-son, 2020 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", URQ-637, 2020), available at: <https://lex.uz/docs/5013007>

2. Safin R. S. et al. Innovative entrepreneurship in education: a new look in the students training content and existing problems //International Review of Management and Marketing. – 2016. – T. 6. – №. 2. – C. 51-56.

3. Lelahester R., Murtini W., Indriayu M. Establishment of entrepreneurial character in the foundation based school system through project based learning //International Journal of Educational Research Review. – 2018. – T. 3. – №. 4. – C. 128-140.

4. Morselli D. How do Italian vocational teachers educate for a sense of initiative and entrepreneurship? Development and initial application of the SIE questionnaire //Education+ Training. – 2018. – T. 60. – №. 7/8. – C. 800-818.

5. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23\\_Suyunov\\_Khoshimov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Suyunov_Khoshimov.pdf).
6. Ismailova Z. K. et al. Development of entrepreneurial skills among students of technical institutions through innovative technologies //DEVELOPMENT. – 2020. – T. 1. – C. 1-2020.
7. Khimmataliyev D. O. et al. Formation Of A Cluster System In The Sphere Of Education In Uzbekistan: Problems And Prospects //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 5634-5638.
8. Ergasheva F. I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS AMONG STUDENTS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 55-60.
9. Muydinovich R. I. Innovative approach to ensuring the continuity of teaching computer science in the system of continuous education of the New Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1622-1629.
10. Akhunova M. K. The role of innovation in the development of the new Uzbekistan //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 11-20.